

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiya” fakulteti
“Kimyoviy-texnologiya” kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Fakultet dekani k.t.n

_____A.Mamaxanov

“ ____ ” _____2016-yil.

5320800-“Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi
Azizova Feruza

“Bosma qolib tayyorlash” mavzusidagi
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi:	_____	F.F.Azizova
	(imzo)	
Ilmiy rahbar	_____	kat.o'q. A.Sobirov
	(imzo)	
Kafedra mudiri	_____	t.f.n. dots. D.Sh. Sherqo'ziyev
	(imzo)	

Mundarija:

Kirish	3
I.TEXNOLOGIK QISM.	8
1.1 Bosish jarayonida bo`yowni yopishi va shimilishi	28
1.2 Computer-to-Plate texnologiyasida qolip tayyorlash uchun loyihalash topshirig`i.	30
1.3 Nashrning texnik tavsifnomasini ishlab chiqish.	31
1.4 Computer-to-Plate texnologiyasida bosma qolip tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish.	32
1.5 STP texnologiyasida qolip tayyorlash uchun tanlangan uskunalar	33
Ishlab chiqarish maydonini xisoblash.	57
II.IQTISODIY QISM.	61
III.MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI.	70
IV.XULOSA.	76
Foydlanilgan adabiyotlar ro`yxati.	77
<i>Ilovalar</i>	

KIRISH

Hozirgi kundagi jadal rivojlanib borayotgan sohalar safida matbaa sanoati ham o'z o'rnini puxta egallamoqda. Kundan kunga matbaa sohasidagi erishilayotgan yutuqlar bunga yoqqol misol bo'la oladi.

Matbaa sanoatidagi texnologik jarayonlari turli tuman. An'anaviy bosish turlariga – tekis, chuqur va yuqori bosma turlari kirib, ular asosida ham bir qancha turlar mavjud. Bundan tashqari kichik adadli mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan maxsus: trafaret, termograf, termotransfer usullar ham bor. O'zbekistonda matbaa sanoati ham ushbu maqsadni amalga oshirishda o'ziga xos o'rin tutadigan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, matbaa sanoati butun dunyo bo'yicha eng dinamik va shiddatli rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi undan ham tezroq rivojlanayotgan axborot tarmog'i sohasida ham o'z ahamiyatiga ega. Umuman olganda, matbaa axborot tarmoqlari sohasiga qo'shilib ketdi hamda axborot kommunikasiya sohasining muhim qismiga aylandi. Matbaa juda tezkorlik bilan insoniyat tomonidan yaratilayotgan barcha yangiliklarni o'ziga singdirib olmoqda va bu yutuqlarini nashriyot va matbaa texnologiyalarida qo'llamoqda.

Shuning uchun biz tez-tez matbaa sohasidagi yangi uskunalari, yangi texnologiyalar, yangi dasturiy echimlar xaqida ma'lumot olamiz hamda qisqa vaqt ichida ularni nashriyot va matbaa korxonalarida bevosita amalda ko'ramiz. Xatto 20-30 yil oldin ham matbaachilar ularning sohalari kelajakda qanday bo'lishini tasavvur qila olmasdilar. XX asrning 80 yillariga nisbatan matbaachilikning so'nggi yillaridagi rivojlanish darajasini kosmik deb hisoblash mumkin.

Bizning ko'z o'ngimizda tarmoqning barcha sektorlari o'zgarmoqda: kecha yangilik bo'lgan narsa bugun eskirmoqda va yangiroq hamda jozibadorroq bo'lgan narsa bilan almashmoqda. Shuning uchun matbaaning zamonaviy texnologiyalari xaqida gapirish va yozish, bir tomondan, texnikaning bugungi holatini bilgan holda oson, ikkinchi tomondan esa qiyin, chunki bugungi kundagi yangiliklar yaqin orada yangiroqlari bilan almashadi.

Fan va tenikaning rivojlanishi bozor talablariga muvofiq holda matbaa texnologiyalarini doimiy takomillashtirishga imkon bermoqda. Bu matbaaning globallashuvi va internasionallashuviga qulay sharoitlar yaratmoqda.

Matbaa usullarining takomillashuvi informatika kompyuter xisoblash texnikasi, kibernetika, avtomatika, shuningdek, fizika, kimyo, mashinasozlik kabi tarmoqlarga bog'liq.

Matbaa jarayonida uchta bosqich ajratib ko'rsatiladi: bosishga tayyorlanish, bosish jarayoni, bosishdan keyingi ishlov berish. Buni barcha biladi. Biroq bunday ajratishning o'zi bugun etarli emas. Matbaada kompyuter texnikasidan foydalanish bugun odatiy holga aylangan. Doimiy ravishda matbaa uchun biror-bir kompyuter echimlari yaratilmoqda.

Inson uchun axborotning elektron va onlayn vositalari qulayligi va zaruratinig oshib borishi bilan bir qatorda u o'qish uchun ajratishi mumkin bo'lgan vaqt qisqarib bormoqda. Bu ayniqsa yoshlar va ma'lumoti kam odamlar uchun taalluqli. Kitob televidiniya, radio, video, internet kabilarga mal'um ma'noda o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Barcha uchun qulay bo'lgan butun jaxon interfaol axborotlaning ko'pligi axborot mo'l-ko'lligini keltirib chiqaradi. Hozirga vaqtda odamlar birinchi navbatda aniq axborotni izlash uchun foydalaniladigan SD-ROM, DVD va boshqa ko'rinishlardagi elektron ma'lumotnoma, katalog kabi nashrlarga murojaat qilmoqdalar.

Elektron media vositalar bilan solishtirganda, kundalik gazeta va axborot jurnallari kabi bosma mahsulotlar o'quvchining individual axborot talablarini qondirishga mo'ljallangan.

Bunday nashrlarni o'quvchi uchun qulay vaqtda va istalgan sharoitda, hech qanday maxsus moslamalarsiz o'qish mumkin. Bu bosma mediya vositalarinig katta afzalligi ekanini aytib o'tish shart emas. Buni elektron media vositalarining egalari va ishlab chiqaruvchilari ham tushunadilar, ular o'quvchi uchun istalgan vaqtda foydalanish mumkin bo'lgan elektron kitoblar yaratadilar. Kundalik gazetalarni olib qaraydigan bo'lsak, ular o'quvchiga o'z vaqtida va dolzarb axborot etkazishi tufayli katta foyda oladilar.

Axborot va ko'ngixushlik insonning asosiy ehtiyojlari hisoblanadi. Bu ma'noda interfaol media vositalarining qanday rol o'ynashi, birinchi navbatda, ular ko'rsatilgan ehtiyojlarni odatiy media vositalariga nisbatan yaxshiroq qondirishi masalasiga bog'liq. Buni qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan axborot media va jarayonlaridan kutish mumkin.

Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, onlayn xizmatlar matbaa mahsulotlari uchun muhim qo'shimcha hisoblanadi. Agar ular o'zining holati va vazifasini mustahkamlasa, axborot jurnallari va kundalik gazetalarning tarkibiga katta ta'sir o'tkazadi.

Umuman aytganda shu narsa oydinki, inson ehtiyojlarini boshqalardan ko'ra yaxshiroq qondiragan media vositalari muvaffaqiyatga erishadi.

Bu erdan kitob va umuman boshqa bosma media vositalarining keyingi rivojlanish istiqbollari haqida xulosa chiqarish mumkin. Xulosa shuki, hech qanday yangi media vositalari xech qachon bosma axborot manbalarini siqib chiqirmaydi. Kino, televideniya, video va DVD teatrlarning yopilishiga olib kelmagani singari, radio, gramplastinka, audiokassetta va audio-CD lar ixtirosidan so'ng konsert faoliyati o'zining mavjudligini muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

Bundan tashqari, faqat so'nggi yillarda shiddatli rivojlana boshlagan matbaa sohasi tarmoqlari ham mavjud bo'lib, ularsiz inson hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu erda o'rash-qadolash va etiketka sanoati haqida eslatib o'tish o'rinli. Xammaga ayonki, o'rash-qadolash mahsulotlari va etiketka almashtirib bo'lmaydigan muhim mahsulotlar bo'lib, ularning rivojlanishi tezlashadi va matbaa texnologiyalarinig umumiy rivojlanishi barobarida yanada takomillashib boradi. Har bir alohida axborot tashuvchi o'ziga hos vazifalarga ega bo'lib, ularning birgalikda mavjud bo'lishi har doim ham nizosiz emas, biroq yakunda raqobat kurashida barcha media vosilari o'z yo'nalishida rivojlanib boradi hamda axborot jamiyatinig uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy matbaa texnologiyalarining rivojlanishi matbaaning sustlashuvi yoki "bukilayotganidan" dalolat bermaydi. Aksincha. Biroq shunga qaramasdan, bozorning rivojlanishi tendensiyalarini kuzatish zarur.

Takidlash joizki, zamonaviy matbaa texnologiyalari hozirda o'z holicha emas, o'zaro yaqin bog'liqlikda mavjud bo'lib, bir-biriga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Bu tizimlar orasida Digital-Asset-Management deb nomlanuvchi axborotni raqamli shakllantirish, uzatish va jixozlashni boshqarish tizimi muhim o'rin tutadi. Bunday tizimlar ishlab chiqarishning to'liq "shaffofligini" ta'minlaydi, ya'ni mijozlarga buyurtmani bajarishni barcha bosqichlarida uni kuzatish sharoitini yaratadi.

Ular Adobe, Agfa, Heidelberg va Man Roland firmalari tashabbusi bilan yaratilgan va ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lmagan JDF(Job Definition Format) singari ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtiruvchi ilovalar bilan birgalikda ishlaydi. Tizim tijorat tarmoq dasturiy ta'minotini qo'shib barcha ishlab chiqarish jarayonlaning va ularning bosqichlarini to'liq integrasiyalash va avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu xalqaro ko'lamda ishlashga mo'ljallangan hamda ishlab chiqaruvchi va tizimlardan mustaqil bo'lgan ormat hisoblanadi. Uning maqsadi - Workflow ma'lumot oqimlarini texnikaviy tashkiliy jixatdan birlashtirish hamda mijozlar, bosmaxonalar, broshyuralash muqovalash korxolari va bo'linmalari orasida ko'priki o'rnatish.

Nashrlar rangdorligining oshishiga e'tibor qaratigan bo'lsak bir necha yillardan beri mavjud bo'lib kelayotgan rangni qayta ishlashni shakllantirish va boshqarish tizimi Color-Management ning ahamiyati sezilarli oshdi. Ulaning yangi versiyalarida to'g'riroq aytganda, yangi echimlarida asosiy e'tibor faqat uskunalarga emas, balki rang haqidagi axborotning o'ziga qaratiladi.

Bir necha yillardan beri ma'lum bo'lgan Workflow matbaa korxonalarida ishlab chiqarish oqimlarini boshqarish tizimi axborotni raqamli qayta ishlashga yo'naltirilgan. Hozirda ba'zi firmalar yuqorida ta'kidlab o'tilgan JDF formatidagi singari yangi instrumentlardan foydalanuvchi bir necha Workflow raqamli tizimlarni yaratdilar. Ular matbaa ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida raqamli axborotni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, CTR ning raqamli Workflow tizimlari shuningdek, svetoproba tizimlari bilan integrasiyani ta'minlaydi. Ularga ma'lumotlarni qabul qilish, ishlab chiqarish, xotirada saqlash

korxonada va buyurtmachi tomonidan korrektura qilish, rangni boshqarishi, trepping (ikkita rangli yuzalarning bir-birini berkitishi sozlash yoki ular orasidagi ochilib qolgan joylarni bartaraf etish) ranglarga ajratish sahifalarini to'liq o'lchamda joylashtirish va ularni chiqarishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Raqamli Workflow ga shuningdek buyurtmachi bilan interfeys ishlab chiqarish buyurtmasini korxonaga qabul qilish, ishni barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tkazish ishlab chiqarish axborotini to'liq to'plash, buxgalterlik hisobi, barcha hisoblashlar va nihoyat axborotni arxivlashtirish ham kiradi.

Matbaa sanoatining bunday rivojlanishiga bog'liq holda korxonada chop etuvchining roli ham tubdan o'zgaradi. Bu endi biz o'rganib qolgan chop etuvchi emas, balki zamonaviy matbaa uskunasining yuqori malakali operatori bo'lib, uning vazifalari hizmat ko'rsatadigan uskuna turiga bog'liq holda tubdan o'zgaradi. Ular zamonaviy kompyuterlashtirilgan texnikani o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Chop etuvchi nashriyot jarayonlarini tayyorlash texnologiyalari (prepublishing) bosishgacha bo'lgan texnologiyalari (Prepress) va albatta multimedia hamda zamonaviy dasturiy echimlar bilan tanish bo'lish kerak.

I Texnologik qizm

Tekis bosish usuli


Asosiy usullaridan biri bo‘lib, unda bosma qolipda bosiluvchi va oraliq elementlar bir tekislikda joylashadi. Tekis bosma turlariga fototipiya, litografiya va ofset usullari kiradi.

Fototipiya - yarim tusli tasvirlarni rastrlashsiz tekis bosish usuli bo‘lib, jelatin qatlami metall yoki shishali qoliplarga negativdagi tasvirlar nusxalanadi. Hozirgi vaqtda bu usuldan deyarli foydalanilmayapti.

Litografiya – tekis bosma usuliga kirib, bunda bosma qolip sifatida tosh yuzasi ishlatiladi. Litografiyada tosh ustiga tasvir maxsus yog‘li litografik tush yoki qalam yordamida tushiriladi.

Hozirgi vaqtda litografiya usuli deyarli ofset usuli deyarli siqib chiqargan, ammo badiiy estamplarni tayyorlashda bu usulda hali ham foydalaniladi.

Ofset bosish usuli tekis bosma usulining bir turi bo‘lib, bunda bo‘yoq bosma qolip sirtidan rezina sirtiga o‘tkaziladi, undan so‘ngina qog‘oz (yoki boshqa material) sirtiga o‘tkaziladi. Bu yupqa qog‘ozlarda bo‘yoqni yupqa qilib bosish imkonini beradi. Hamma turdagi mahsulotlarni (shu jumladan ko‘p rangli) bosish uchun ishlatiladi. Ofset uskunasing tuzilishi quyidagi suratda ko‘rsatilgan.



Rasm. 1. Ofset uskunasing shakli

Hozirgi kunda ofset usuliy yetakchi usul hisoblanadi. Ofset usulidagi bosma qolipdagi bosiluvchi va oraliq elementlar bir tekislikda joylashgan. Bosilayotgan nashrdagi tasvir maxsus usulda plyonkadan (fotoqolip) bosma qolipga (silindr qolipi) o'tkaziladi. Maxsus fotokimyoviy usul bilan plastina qayta ishlash oqibatida, tasvir va matn yo'q joylarini suvda yuviladigan bo'lib qoladi va shuning uchun o'sha yerlari bo'yoqni qabul qilmaydi. Bosishning kerak qismlari esa aksincha qayta ishlovdan keyin bo'yoqni yaxshi qabul qilish xususiyatiga ega bo'lib qoladi. Bosish jarayonida bosma qolip namlovchi apparatdagi suv bilan shunday namlanadiki, uning oqibatida bo'yoq surtilganda, suv qolipning faqatgina yog'ga ta'sirchan qismlaridagina qoladi. Bunda qo'shimcha usulda bosish amalga oshiriladi, ya'ni bo'yoq metall plastinadan rezina matosi orqali qog'ozga o'tadi. Elastik rezina matosi qog'oz varag'iga yaxshilab birikib unga bo'yoqni yaxshi o'tkazadi. Ofset bosish usulida yuqori sifatli nusxalar olinadi. Biroq bosish jarayonining fizik xususiyatlari ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ularga bo'yoqning qovushqoqligi, bo'yoq va suv me'yorlari bir xilda ushlab turish, RN yumshatuvchi eritmalarning xususiyatlari kiradi. Bu omillarning hammasi ofset usulini bir oz og'ir jarayonga aylantiradi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun ofset usulida doimiy nazorat qilish shart.

YUQORI BOSMA USULI

Bosish usullarining asosiylaridan hisoblanib, bunda nusxa (bosuvchi) elementlari bo'rtib chiqqan va (oraliq) elementlari chuqurroq joylashgan bosma qoliplardan olinadi. Bo'rtgan (bosuvchi) elementni bosmaxonada qo'rg'oshin qorishmasidan brusok shaklida, daraxt yoki plastmassadan (bo'rtgan) harflarni relef tasviri shaklida bo'ladi. Bosish jarayonida harflarning relefli yuzasi bo'yoq bilan qoplanadi va qog'ozga tasvir tushiriladi. Yuqori bosma usullariga : ***fleksografiya va issiqlik ta'siridagi tisneniya*** kiradi.

Fleksografiya – elastik rezinali bosma qolip ishlatiladigan o'ramli yuqori bosma usulidir. Fleksografiya usulida fotoplyonka va yorug'likka sezgir eksponirlash sistemali fotopolimer plastinalar ishlatiladi. Fotopolimer

plastinalarning qayta ishlovi suv yoki organik eritmalar yordamida amalga oshiriladi. YUvish jarayonidan so‘ng relief tasvirga elastik fotopolimer qolip hosil bo‘ladi va u bosish uskunasi valiga kiygiziladi. Fleksograf bosish usuli turli xildagi qadoqlash mahsulotlarini, gazetalarni, shuningdek gilamlarga va matolarga tasvir tushirishda ishlatiladi. Aralash bosishda unga teng keladigan yo‘q bo‘lib, uskuna va qolip tannarxi ancha arzon, kam joyni egallab materiallarni tejamkorlik bilan ishlatishga yordam beradi. Fleksografiya qoliplari tez tayyorlanib, ularning cho‘ziluvchanligi ancha yuqori. Fleksografiya usulida ishlaydigan uskunalarda tisneniya shtampi, klishelari tayyorlanadi. Issiq tisneniya usulida bo‘yoq sifatida turli tekstura va rangli dog‘larga ega folga ishlatiladi. Klishe pressning qizdiriladigan maydoniga mahkamlanadi. Press qizdirilgan klishe bosilayotgan sirtiga (qog‘ozga, teriga, plastinkaga) va oldindan qo‘yilgan folgani tushiriladi. Natijada bosilayotgan yuzada tasvirning aksi qoladi.

CHUQUR BOSMA USULI

Chuqur bosma usulida bosuvchi elementlar qolipda chuqurroq joylashadi. Qolipdagi bosuvchi elementlar qanchalik chuqurroq joylashsa, shunchalik bo‘yoq ko‘proq bo‘yoq qolipdan qog‘ozga o‘tadi va nusxa olinadi. Qolip sirtidan (oraliq elementlar) bo‘yoqni olish uchun maxsus pichoq (rakel) ishlatiladi. Chuqur bosma usuli bo‘yoqlarini qog‘ozga yuqinroq bergani uchun odatda undan ko‘p tasvirli jurnallarni, fotoalbom va portretlarni tayyorlashda ishlatiladi. Chuqur bosma usulining afzalliklari asosan qadoqlash mahsulotlarini tayyorlashda ko‘rinadi. Bosish sifati adadning oxirigacha o‘zgarishsiz qoladi. Chuqur bosma usuli sifat darajasida hamma talablarga javob berib, bosishda eng yaxshi natijalar beradi. Bu bosish usuli kam adadli va qaytariladigan buyurtmalar uchun eng yaxshi taklifdir. SHu vaqtning o‘zida chuqur bosishda qolip silindirlariga harajatlar katta bo‘lib, kichik adadlarni tayyorlashda u fleksografiyaga yo‘l beradi. Chuqur bosma usullaridan biri tampon bosish usuli hisoblanadi. Tampon bosish usuli uchun qolip tayyorlash xuddi fleksografiya usulidagi fotopolimer bosma qolip tayyorlashga o‘xshab ketadi. Biroq u tasvirni qolipda biroz chuqurda joylashgani bilan fleksografiya usulidagi qoliplardan farq qiladi. Bosma qolip tampon bosish

mashinasiga mahkamlanadi. Bosish jarayoni quyidagilaridan iborat: bo‘yoqni qolip sirtiga surkash, ortiqcha bo‘yoqni olib tampon rangli tasvirni bosma qolipdan elastik silikon rezinali qolip yordamida bosiladi.

Trafaret bosish – matn va grafik tasvirlarni bo‘yoqni bosma qolipning tirqishlaridan (polimer, ipak yoki mis setka probel yuzalarini himoya qatlami bilan burkalgan) amalga oshiriladi. Trafaret usuliga shelkografiya va duplikatorlarning bosish jarayonlari kirib, unda fizik matritsaga (master-plyonka) tasvir lazer nuri orqali tushiriladi.

Shelkografiya – bosishda qog‘oz va matolarni ishlatiladigan bosish usuli bo‘ladi. Rasm yoki tasvir qog‘ozlarni qirqib olinib u matoga qo‘yilgan (probel element), bosiluvchi maydonlar esa ochiq qoldiriladi. Hozirda shelkografiya usulida yorug‘likka sezgirlashtirilgan maxsus setka ishlatiladi. Tasvirli plyonkani yopishtirish oqibatida oraliq elementlar mahkamlanadi, bosiluvchi elementlar esa yuvilib setkadan bo‘yoqni o‘tishini ta’minlab beradi. Olinayotgan nusxa sifati to‘rdagi katakchalarni katta-kichikligiga bog‘liq.

Termografik bosish usuli

Termograf usuli quyidagilardan iborat: bosilgan varaq hali qurishga ulgurmasdan matn yoki rasmga maxsus termaporoshok surtiladi, u o‘z navbatida ho‘l bo‘yoqqa yopishadi. SHundan so‘ng transporter lenta orqali varaq tunnel o‘choqdan o‘tib, poroshok eriydi va relefli tasvirni hosil qiladi, so‘ngra sovitish moslamasida tasvir varaqaga maxkamlanadi, shundan so‘ng varaq qabul qilish lotogiga kelib tushadi.

Termotransfer bosish usuli

Asosan bayroq, branmauer va kam adadli suvenir mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan bo‘yovchilarning termik diffuziyali o‘tkazish usuli ishlatiladi. Oldin qog‘ozga termo maydonli bo‘yoq yordamida tasvir tushiriladi. Keyin tasvirni qog‘oz (tasvirni pastga qaratib) tashuvchi-matoga qo‘yiladi va termotransfer uskunasi issiq vallaridan o‘tkaziladi. SHu yo‘l bilan rasm qog‘ozdan matoga o‘tadi.

Compyuter-to-Plate texnologiyasini tanlash

CtP (Compyuter-to-Plate) texnologiyasi bugungi kunga kelib ishlab chiqarishning asosiy usuliga aylanib qolmoqda. Butun Dunyo bo'yicha 10000 dan ortiq **CtP** sistemalari o'rantiq, keyinchalik bu ko'rsatkich ikki barobar ko'tarilishi kutilmoqda.

Compyuter-to-Plate texnologiyasi tuzilishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Bizning fikrimizda binafsha rangli lazer yordamida ishlaydigan Compyuter-to-Plate bir qancha afzalliklarga ega, ta'kidlab o'tish kerakki, bu ayniqsa V2 va V1 o'lchamda maxsulot ishlab chiqaradigan ishlab chiqaruvchilarga taluqli.

Compyuter-to-Plate texnologiyasida ishlatiladigan plastinalar ikki turga ajratiladi: bu sirti yorug'likka sezgir emulsiya bilan qoplangan va tremoplastinalardir. Termoplastinalar IQ nurlari ta'sirida plastinalar o'z xususiyatlarini o'zgartirib turadi. Binafsha rang yashil va ko'k ranga qarshi.

Compyuter-to-Plate texnologiyalarida binafsha rang lazerdan oldin asosan ikki xil lazer ishlatilar edi, bular 532 nm to'lqin uzunligi FD-YAG yashil rangdagi lazerlar va 488 nm to'lqin uzunligidagi ko'k rangdagi argon-ionli gazli lazerlardir. Binafsha rangli lazer o'zini afzalliklarini eski turdagi lazerlar oldida ko'rsata oldi. Birinchi afzaligi uning arzonligidir. Binafsha rangli yarimo'tkazgichli lazer boshqalar lazer turlariga qaraganda ancha arzonroq. Sariq rangda ishlash imkoni mavjud. Plastinalar 410 nm to'lqin uzunligidagi lazer bilan eksponirlashga mo'ljalangan, uning kunduzi yorqin sariq rangda ham ishlatish mumkin. Plastinalarning sifati yuqori darajada. "Binafsha rangi" plastinalar Compyuter-to-Plate texnologiyalaridagi eng yangi yutuqlarni o'zida jamlashtirgani uchun 3500 dpi imkonli qobiliyatdagi tasvir qismlarini ham to'laligicha tasvirlay oladi. Ishlatilishi uzoq muddatga mo'ljalangan. Uskunadagi lazer diodi plastinani eksponirlash jarayonida yoqiladi, boshqa turdagi lazer esa uskuna ishini tugatgunicha ishlaydi. Ishlatilishda lazer diodining nurlanish vaqti 4-5 marta kamroq. Modulyatorning yo'qligi. Diod orqali oziqlantirish qarshiligini yoqish yoki o'chirish mumkin. Buning uchun qimmat elektr-akustik modulyatorlar shart emas. O'lchamlarning kichkinaligi. Lazer va uning optik qismi anchagina ixcham.

Lazer barabanga osongina o'rnatilishi mumkin. Elektr quvvatidan kam foydalanishi. Binafsha rang diodli lazerli, gazli yoki qattiqroq turdagi lazerlarga nisbatan kamroq energiya sarflaydi, shuning uchun ularga baquvvat sovitgichlar kerak emas. Hozirgi kunda mavjud barcha lazerlar binafsha rang lazerlar bilan raqobatlasha olmaydi.

830 nm termali texnologiya bilan taqqoslash

Bosmaxonalarning tajribalaridan kelib chiqib shuni aytish kerakki, termal va «binafsha rang» Computer-to-Plate plastinalari sifat darajasidan bir-biridan qolishmaydi. Termal texnologiyada «kvadrat» nuqtaning afzaligi plastinada tasvirni kattalashtirilgandagina seziladi. Bosmaxonalarda esa aytarli farq ko'rinmaydi.

Termal texnologiya bo'yicha ishlaydigan Compyuter-to-Plate ni ikki usul bilan: tashqi va ichki baraban orqali tashkilashtirish mumkin. Birinchi usulda plastina qo'zg'almas baraban ichiga joylashtiriladi va nur bilan ochiltiriladi, bu aylanayotgan spiner xisobiga amalga oshiriladi. Farqi gazli IQ-lazer quvvatining ishlatilishidadir. Bu og'ir texnologik qiyinchiliklar sababli ishlatiladi. Ko'pgina ishlab chiqaruvchilar ikkinchi turdagi Compyuter-to-Plate ning "termal" texnologiyasidan foydalashadi, unda uskuna ichida joylashgan aylanuvchi barabanga plastina maxkamlanadi va juda ko'p quvvatga ega IQ-diodlari yordamida eksponirlanadi.

«Binafsha rang» texnologiyaning termal texnologiyaga nisbat afzalliklari nimada?

Lazerning juda arzonligi. Xar qanday yarimo'tkazgichli lazerlar boshqa turdagi lazerlardan ancha arzon, biroq binafsharang lazerlar ulardan ham arzonroq. Bunga maishiy videotexnikada shunday lazerlarning ishlatilishi va ularning ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi sabab bo'ladi.

Binafsha rang lazerli Compyuter-to-Plate texnologiyasi konstruksiyalarining arzonligi. Uning bahosi haqida gap ketganda uning arzonligi faqat lazerningina emas, balki optikasi, nurni boshqaruvchi moslamalari, sovutish moslamalarining

arzonligi bilan ham baholanadi. Termal usuldagi ichki barabanli usulda gazli IK-lazer ishlatilib unda ham nurni yo‘naltiradigan modulning talab etiladi.

Bundan taqari, IQ-to‘lqinlarining uzunligi katta bo‘lgani uchun uni kerakli yo‘nalishga burish uchun katta ko‘zguli spiner talab etiladi. Muommalardan biri bu jarayonlardan keyin asboblarni sovitish masalasi turadi. Bu jarayonlarda lazer, spiner ko‘zgusi plastina ham qizib ketadi. Nurning plastinaga tegmasligi oqibatida barabanning yuzasi zararlanadi. Bunday lazer bilan ishlash qiyinligi sababli xafvsizlik choralarini ishlab chiqish kerak. Termal texnologiyada ko‘pincha tashqi barabanli usul ishlatilib, unda ishlatiladigan plastinaning og‘irligi uning turi, qalinligi va o‘lchamidan kelib chiqqanligi sababli uni og‘irlik balansini saqlash og‘ir kechadi. Masalani hal qilish ancha ko‘p miqdordagi pulni talab qiladi.

“Binafsha rang” texnologiya esa unga nisbatan ancha yaxshiroq. Compyuter-to-Plate texnologiyasining yaratuvchilarining ushbu turdagi nurdan ko‘p foydalanilayotganlari tufayli uning narxi tushishi kutilmoqda. Bugungi kunga kelib faqatgina ikkita CtP texnologiyasining ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining pleytsetterlarida “binafsha rang” lazerlardan foydalanadilar. Ishlatiladigan materiallar va ishlatilish narxida ham «binafsharang» texnologiyaning bir qancha ustun tarafi bor. Termal texnologiyali uskunalarda ichki barabandagi gazli IK-lazeri chegaralangan muddatga chidashi va yangisiga almashtirish ancha qimmatga tushishi bilan ko‘nikish kerak. Uskunaning boshqa qismlari ham yuqori xaroratda ishlagani bois tezda ishdan chiqadi. Compyuter-to-Plate ning tashqibarabanli termal usuliga solishtirganda ko‘p miqdordagi diodlarni ishlatilishi oqibatida ulardan birontasini ishdan chiqishi extimoldan xoli emas. Binafsha rang lazerni almashtirish bir nechta diodlarni sotib olinishidan ancha arzonroq tushadi. Bittagina diodni kuyib ishdan chiqishi uskunaning to‘xtashiga yoki uni yaxshi ishlamasligiga olib keladi. Diodlarni yuqori xaroratda ishlagani bois ularning tez-tez almashtirib turish kerak. Termal texnologiyada ishlatiladigan plastinalar hozirgi kungacha eng qimmat bo‘lib kelmoqda. Ularning kimyoviy qayta ishlash ham ko‘p pulni va vaqtni talab etadi. ***YUqori tezlik.*** Binafsha rang lazer texnologiyasidagi plastinalar termal texnologiyadagiga nisbatan yorug‘likka 1000

marotaba sezgiroq, shuning uchun lazer nisbatan zaifroq bo'lishiga qaramay binafsharang nurda plastinalarni eksponirlash ancha kam vaqtni talab etadi. Hozirgi kunga kelib termal texnologiyasi ham qo'llanishi mumkin bo'lgan materiallardan ishlangan plastinalarni eksponirlashda maksimal tezlikka erishdi. "Binafsha rang" texnologiyaga nisbatan termal texnologiyada plastinalarning eksponirlashga ketadigan vaqt 50 % oshdi. Termal usuldagi uskuna ish samaradorligi qo'shimcha diodlar qo'yish yo'li bilan amalga oshirish uskunaning narxini oshishiga olib keladi.

BOSISH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

Bosish –bu bosiladigan material yuzasiga bosma qolipdagi berilgan o'lchamdagi tasvirlarni bo'yoq yordamida ko'p marta olishdir. Olingan tasvir nusxa deb ataladi. Axborot nusxalarni ko'paytirishning boshqa jarayonlaridan farqli ravishda, bosish jarayoni bo'yoqsiz bo'lmaydi, hamda materialda qaytmas deformatsiyalarning hosil bo'lishi bilan bog'liq emas. Shunday ekan, bosish jarayonini o'rganganda birinchi navbatda, bo'yoqni qolipdan bosiladigan yuzaga ko'chirish lozimligini o'rganish kerak.

Matbaa sohasida bosish jarayonining o'rni, uning vazifasidan tashqari turdosh texnologik bo'g'inlarga o'z talablarini qo'yadi. Ma'lumki, bosma qoliplarni qo'llash nafaqat nashr adadiga, balki bosish usuliga, bosma uskunasi turiga, bosish jarayonining o'ziga xosligiga, xom –ashyolarning xususiyatiga, broshyuralash –muqovalash va pardozlash jarayonlarining sarmehnatliligiga ta'sirini ko'rsatadi.

Bosish jarayoni klassifikatsiyasi

Bosish usullarining umumiy qabul qilingan yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Bosma qoliplarda bosiluvchi va bosilmaydigan oraliq elementlarining joylashishi bo'yicha yuqori, ofset va chuqur bosma turlari mavjud.

O'tgan asrning 60-70 yillarida matbaa sanoatida ishlab chiqilgan bosish usullari klassifikatsiyasi yuqori, ofset va chuqur bosmalarning texnologik imkoniyatlarining bir –biriga yaqinlashuvini, shuningdek, sanoatda qo'llanayotgan bosma jarayonlarni to'liq qamramaydi.

Nafaqat amaldagi bosish usullarini, balki matbaa rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini qamrab olgan bosma jarayonlari zamonaviy klassifikatsiyasining chuqur o'ylangan kontseptsiyasi V.S.Lapatuxin tomonidan taklif etilgan.

Nusxa va ularning bosma-texnikaviy imkoniyatlarini belgilovchi bosma axborotlarni tayyorlash usullarining texnik belgilariga quyidagilar kiradi:

bo'yoqni ko'chirish usuli (rangli tasvir) –bosish jarayonining o'ziga xosligini ifodalovchi bosiladigan materialga bo'yoqni ko'chirish usuli;

bosish tartibi –bosma qolip va bosish jarayoni o'rtasidagi o'ziga xosligi yoki bosish jarayonida bosma qoliplarni qo'llamasdan bosiladigan materialga bosish tartibi; bosma tasvirni olish usuli –bosiluvchi va bosilmaydigan oraliq elementlarini tashkil qiluvchi bosma tasvirni olish usuli, ko'chirish usuli va nusxa olish tartiblarining o'zaro ta'siri va shuningdek, bosma qoliplarning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, egiluvchanlik, elastik, namlash ehtiyojining yo'qligi va h.k.), alohida fizik –kimyoviy ta'sirini bosishda qo'llash.

Bosish usullari tuzilishining alohida xususiyatlari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini har tomonlama asoslab berishi lozim. Bunda axborotni uzatish matbaa texnologik jarayonining tezlik darajasi va nashrning badiiy –texnik sifatini, axborot tayyorlash usulining xususiyatlarini yani tasvirni bosish imkoniyatlarini belgilaydi.

Bosish usullari klassifikatsiyasi tizmasi (V.S.Lapatuxin bo'yicha)

1.jadval

Klassifi- katsiya belgilari	Bosma axborotni ishlab chiqarish usullari (bosish usullari)				
	Ko'p davrli Ko'p jarayonli	Bir davrli Ko'p jarayonli	Bir davrli Bir jarayonli	Bir davrli masofali	Yarim masofali
Ma'lumot lilik	Cheklangan	Yuqoriroq	Yuqori	Ko'proq yuqori	Yuqoriroq yoki yuqori (davriyliligiga qarab)
Bosish usullari	To'g'ridan-to'g'ri (kontaktli)		Bavosita (ofsetli)		Kontaktsiz
Bosish tartiblari	Doimiy qolipdan bosish	O'zgaruvchan bosish	qolipdan	Bosish qolipisiz bosish	Turli xillari
Bosma tasvirni olish usullari	Bosiladigan va oraliq elementlarini ajratish-ning turli mexa-nizmlarini, berilgan bo-sish sharoitlarini ta'-minlashning turli texnik vositalarini qo'llash	Matbaa usuli bilan ishlab chiqiladigan bo-sish jarayonida uzluksiz axborot tushadigan u yoki boshqa turdagi bosma qoliplarning turli tay-yorlash usullarini qo'llash		Matbaa usuli bilan ishlab chiqiladigan be-vosita bosiladigan ma-terialga uzluksiz axbo-rot tushadigan bosma tasvirning turli qolip tayyorlash usullarini qo'llash	Shu kabi

Purkash usulida bosish –suyuq bo'yoq oqimini elektrostatik boshqarish usulini bosiladigan materialda qo'llab kontaktsiz tasvirlarni bosma qoliplarni qo'llamasdan bir davrli bir jarayonli bosish usuliga kiradi.

V.S.Lapatuxin taklif qilgan klassifikatsiya bosma jarayonlarga zamonaviy ilmiy –texnika ko'rsatayotgan ta'sirini o'zida aks ettiradi.

Birinchidan, an'anaviy – (yuqori, ofset va chuqur) bosma usullarida ham jiddiy o'zgarishlar bo'ladi.

Ikkinchidan, yuqori texnika va texnologiya sifat darajasida an'anaviy bosish usullarining alohida xususiyatlari qo'llanadigan bosish usullari paydo bo'ldi. Namuna sifatida tasvir bo'rttirilgan, tabiiyki bosma qolip yordamida namlashsiz bosiluvchi materialga tasvir tushirishda yuqori ofset bosish usuli xizmat qiladi. Ayrim mamlakatlarda «Di-lito» deb ataladigan to'g'ri ofset bosish usuli qo'llaniladi. Unda tasvir hech qanday oraliq bo'g'insiz yassi qolipdan qog'ozga o'tkaziladi.

Uchinchidan, bir necha o'n yillar oldin ishlab chiqilgan va turli sabablarga ko'ra qo'llanmasdan kelgan fleksografiya, trafaret va elektroografiya bosish usullari yangi turtki oldi. Undan tashqari, uzoq vaqt davomida amaldagi bosish usullariga qaraganda unumdorligi yuqori bo'lgan imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi bosma usullari izlanishlari olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarga, bir tomondan an'anaviy bosish usullarining yuqorida qayd etilgan kamchiliklari va ikkinchi tomondan, so'nggi yillarda elektron texnologiya sohasida erishilgan yutuqlar turtki bo'ldi.

Matbaa ishlab chiqarishda tarmoq istiqbolli rivojlanishining asosiy yo'nalishi bosishning turli variantlarini qisqartirish, tarmoqda saqlanib qolayotgan bosish usullarining texnika –texnologiya imkoniyatlari kengaytiriladi.

Bosish jarayonining hozirda qo'llaniladigan 135 ta texnologik variantlar ma'lum. Ular quyidagi farqlari bilan ajralib turadi:

- 1) bosiladigan materialning xususiyati va mavjudligi;
- 2) bosish amalga oshadigan bosma qolipning xususiyati va mavjudligi;

3) bosish jarayonida bosim amalga oshadigan konstruktiv elementning turi va mavjudligi.

Variantlarning umumiy sonidan 13 tasi yuqori bosma usuliga, 56 tasi –ofset bosma usuliga (bu esa ushbu usulning moslashuvchanligidan dalolat beradi), 24 tasi chuqur bosma usuliga, 31 tasi trafaret va maxsus usullariga, bosishning elektrografik usuli va yaqin kelajakda qo'llanadigan usullarga esa 11 ta variant to'g'ri keladi.

So'nggi o'n yillikda an'anaviy bosish usullarini rivojlanishida, bosishgacha bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish, matbaa materiallarning xususiyatlarini yaxshilash va yangi turlarini ishlab chiqish, yuqori ish unumdorlikka ega bosma uskunalarni yaratish natijasida yuqori, ofset va chuqur bosma usullarining texnologik imkoniyatlari bir-birlariga yaqin bo'ldi, usullar esa yanada universallashti.

An'anaviy bosma usullarining imkoniyatlari bir –biriga yaqin bo'lgani birinchi navbatda yuqori bosma usulining ustun bo'lishiga chek qo'ydi. Ofset usuli gazeta, kitob –jurnal, rangli mahsulotlarni ishlab chiqarishda ko'p qo'llanib kelinmoqda. Sifatli jurnallar, yuqori badiiy al'bom, katalog, prospekt va gazetalarning bir va ko'p rangli ilovalarning ko'plari chuqur bosma usuli bilan tayyorlanmoqda. Bunday ommaviylashish bosmaning faqat yagona bosish usuli qolishiga olib keladi deb o'ylash noto'g'ri. Yuqori bosma usuli butunlay yo'q bo'lib ketishi va ofset usuli kengroq qo'llanishi to'g'risidagi (80 yillar) taxminlar oqlanmadi. Shuning uchun jahonda bosma mahsulotlar ishlab chiqarish doimiy ravishda o'sib kelishini hisobga olib, bosishning barcha usullari o'zgarib borib, keyinchalik ham jahon matbaa sanoatida uning raqobatdoshligi, texnologik darajasi, ishlab chiqarish –texnik bazasi zamonaviy talablarga muvofiqlik darajasidan kelib chiqib o'z o'rnini egallaydi.

Shuning uchun ham darslikning asosiy mazmuni bosishning – yuqori, ofset, chuqur usullarini nazariy asoslari, alohida xususiyatlari, amalda qo'llanishlarini ko'rib chiqishga qaratilgan.


An'anaviy bosish jarayoni qo'yidagi tizma (1.1-rasm) bilan taqdim etilishi mumkin. Ushbu tizmaga muvofiq bosish usulidan va tuzilishidagi xususiyatlaridan qat'iy nazar har bir bosish uskunasi to'rtta asosiy ishchi elementlarini ajratish mumkin.

1) Qog'oz uzatish qurilmasi –varaqli yoki rulonli materialni bosma kontakt maydoniga olib keladigan va varaqlarni stapeldan ajratish uchun maxsus moslama bilan jihozlangan, har bir varaqning yoki qog'oz tasmasining bosma qoliplarga nisbatan tekislanishi;

2) Bo'yoq apparati –odatda belgilangan bo'yoq miqdori bilan bosma qolipni uzluksiz ta'minlab turadi. Tizim rezervuardan (bo'yoq qutisidan) o'lchangan bo'yoqning uzatilishini va bir vaqtning o'zida bo'yoq tuzilishini o'zgartirish bilan uni ingichka, bir xil yoyilgan bo'yoq qatlamini birin –ketin parchalanish yo'li bilan bo'yoq qutisidan bosma qolipga bir xil tekislikda zarur texnologik qalinligini ta'minlanishi;

3) Bosma apparati –bosma uskunada qolipning bosiluvchi elementlaridan bosiladigan materiallarga bo'yoqning ayrim miqdorini ko'chirish (bosishning an'anaviy usullarida bu bosim ostida amalga oshiriladi) va qog'oz varag'i yoki qog'oz matosini bosish kontakti maydonidan o'tkazish uchun sharoitlar yaratiladi. Bosma uskunalarning alohida tuzilishi va vazifalari bosish usuli, bosma qolip turi va bosiladigan materialning turi bilan bog'liq;

4) Qabul qilish qurilmasi –bosilgan mahsulotni chiqarish, qabul qiluvchi moslamaga buyurtmalarni uzatish va ulardan keyinchalik texnologik qayta ishlash uchun qulay bo'lgan to'plamlarni shakllantirish: varaqli uskunalarda –chetalari tekislangan varaqlar, rulonlarda – buklangan daftarlar yoki qaytadan rulonga o'ralgan, ayrim hollarda esa birin –ketin bosilgan qog'oz matosidan kesiladigan bir xil qog'ozlar to'plamini qabul qilish.



1.1-rasm. An'anaviy bosma jarayonining umumlashtirilgan texnologik tizmasi

Asosiy qismlaridan tashqari qo'shimcha qurilmalar ham kirishi mumkin (namlovchi apparatlar va ofset uskunalarda uzatuvchi silindrlar), bosma mahsulotlarning texnologik talablari va ularning vazifalari bilan bog'liq (bosma bo'yoqlar qotishini tezlashtiruvchi moslamalar, laklovchi sektsiyalar va h.k.) bo'lgan holatda.

Bosish jarayonida asosiy talablardan biri bosish usuliga qog'oz va bo'yoq xususiyatlarini bir –biriga moslashdir. Bunda qog'oz va bo'yoq materiallarni bosishga tayyorlash va ularning asosiy xususiyatlarini tekshiruvdan o'tkazish katta ahamiyatga ega.

Qog'oz va bo'yoqni o'zaro ta'sirini belgilovchi shartlarning asosiy omillarini ikki guruhga ajratish mumkin:


Birinchi guruhga ushbu o'zaro ta'sirda qatnashayotgan qog'oz va bo'yoqning tabiati va xususiyatlari bilan bog'liq omillar kiradi. Bular: qog'ozni bo'yoq bilan namlash; bo'yoqning adgeziya –kogeziya xususiyatlari, ular bo'yoq qog'ozni namlash va unga yopishish xususiyatlarini belgilaydi.

Bo'yoq qatlamining parchalanishi, bo'yoqni nusxada mustahkamlanish xarakteri –qog'ozni kapilyar namlash, uzoq parda hosil qilish va h. q.;

Ikkinchi guruhga bosma jarayonni o'tkazish va tartibini belgilovchi omillar kiradi: qolip qog'oz bilan kontaktda bo'lgan vaqtdagi bosim miqdori; bosish tezligi; bo'yoq qatlamining qolipdagi qalinligi; qo'llanilayotgan qolip va bosma uskunalarning tuzilishi va ularni bosishga tayyorlash; bosma jarayonni o'tayotgan harorat va havoning namligi.

E.Germanies nusxa olish jarayonini asosiy elementlarining o'zaro aloqalarini ifodalovchi quyidagi tizmani (1.2-rasm) taklif etadi. Yuqorida ko'rsatilgan omillarning o'zaro bog'liqligi shubhasizligi bosma jarayonni tayyorlash va o'tkazishga har tomonlama umumiy tayyorlanish zarurligini tasdiqlaydi.

Bosish jarayonini asosiy elementlarining o'zaro aloqalari



1.2-rasm. Bosma jarayondagi asosiy materiallarning o'zaro aloqalarini ifodalovchi umumlashtirilgan tizma

Bosish jarayoni bosma bo'yoq bosiladigan material bilan o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan vaqtda yuzaga keladigan hodisalar bilan bog'liq. Ushbu hodisalar kontaktda bo'lgan vaqtda yuz xossalari molekulyar alomati bilan belgilanadi.

Dj.U.Gibbs (1839-1903) yuz xossalari batafsil o'rgangan birinchi olimlardan hisoblanadi. Gibbs yuz xodisalarining mikroskopik nazariyasini

yaratdi va adsorbtsiya yuza atrof –muhitdan molekulalarni o'ziga olish qobiliyatini tushuntirdi.

Oddiy sharoitlarda moddaning yuzasi atmosfera molekula va atomlari bilan doimiy ravishda ko'p to'qnashuvlarga duch kelib, uning haqiqiy xususiyatlarini bekitadigan begona parda bilan tez qoplanadi.

Qog'oz va bo'yoq xususiyatlari bosish jarayoni xossalari bilan belgilanadi. Ushbu materiallar yuzasini ilmiy asosda o'rganish usuli-termodinamik usuldir.

Qog'oz va bosma bo'yoqning molekulyar tabiati

Qog'oz murakkab yuza xususiyatlariga ega, sababi qog'oz nafaqat selluloza tolalari, balki boshqa qo'shimcha tolalardan ham iborat bo'lib, elimlovchi, to'ldiruvchi rang beruvchi va h. q. qo'shimcha tarkiblardan tashkil topgan g'ovakli tizimdir. Ushbu moddalarning birgalikda ta'siri qog'ozni suyuqlik bilan namlash va yopishish shartlarini belgilaydi.

Qutbli suv va qutbsiz suyuqlik (masalan, vazelin moyi) bilan o'zaro ta'sirlashuv tavsifiga ko'ra qog'oz gidrofil va gidrofobga bo'linadi. Faqat selluloza tolalaridan iborat qog'oz –gidrofildir. Elimlovchi moddalar odatda, qog'ozning gidrofilligini pasaytiradi, ayrim hollarda elimlaganda qog'oz gidrofob bo'lib qoladi. Qog'oz yuzasining g'ovakli tuzilishi –namlanishni ushlanib qolishi sabab bo'ladi, bu esa uning yuzasi haqiqiy xususiyatlarini noto'g'ri tushunishga olib keladi.

Bir xil tarkibli qog'ozning g'ovakliligi kamayib, silliqdigi ko'paysa namlanish burchakligi kamayadi, yani qog'oz yanada gidrofilli bo'ladi.

Bosma qog'ozning molekulyar tabiati suv bilan namlanish burchak chegara miqdori bo'yicha shartli klassifikatsiyasi qabul qilingan:

$0^{\circ} < \theta < 15^{\circ}$ – absolyut gidrofilli;

$15^{\circ} < \theta < 60^{\circ}$ – gidrofilli;

$60^{\circ} < \theta < 80^{\circ}$ – oraliq xususiyatlarga ega;

$80^{\circ} < \theta < 140^{\circ}$ – gidrofobli;

$\theta > 140^{\circ}$ – absolyut gidrofobli;

Matbaa sanoatining bosma qog'ozlarning xususiyatlariga bo'lgan talablari ularning vazifalari, bosma jarayonlarda ishlatish sharoitlari bilan belgilanadi.

Ofset bosma usulida bosishda qog'ozning xususiyatlari alohida ahamiyatga ega, unda qolip va qog'oz bo'yoq bilan tanlash asosida namlanadi.

Namlikning bir bo'lagini o'ziga tortadigan gidrofil qog'oz ofset matosiga tekkanda, uning yuzasiga namlik yig'ilib qolish imkonini bermaydi, bu esa emul'siya bo'yog'i sonini kamaytiradi. Gidrofob qog'ozni eng kam namlanishini talab qiladi. Shu bilan birga gidrofil va gidrofob qog'ozlari ham ularni olish shartlariga qarab bosish jarayonida ishqorni suv bilan bog'lash natijasida namlovchi eritmaning PH ini o'zgartirishi mumkin, buning natijasida esa bo'yoq –suv balansi buziladi va nusxalar sifati yomonlashadi.

Bosish jarayonida bosma qog'ozlarining turli xillaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ularning har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga egadir.

Gidrofil qog'oz tez iqlimga moslashadi. Namlik o'zgarishi bilan u o'zining mexanik xususiyatlarini o'zgartirishi, elektrlanish qobiliyatini bartaraf etishi ham mumkin. Gidrofil qog'oz suvli bo'yoqlarni faol qabul qiladi, gidrofob qog'oziga esa namlik kamroq ta'sir etadi va u moyli bo'yoqlarni yaxshi qabul qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakni, yuzaning ayrim xususiyatlarida bo'yoq gidrofil qog'oz tomonidan yaxshi qabul qilinib, gidrofob tomonidan esa –qoniqarsiz. Shuning uchun qog'oz yuza xususiyatlarini o'rganish bilan, bo'yoqlar yuza xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bo'yoqlarning molekulyar –yuza xususiyatlari bo'yoq valiklari va silindrlari, qolip va qog'ozlarning bosiladigan elementlarini namlash va ularning yuzasiga yopishish qobiliyatlarini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar ko'rsatilgan yuzalar bilan bevosita kontaktga kiradigan bog'lovchi moddalar tabiatiga bog'liqdir.

Bosma jarayonlar amaliyoti ko'rsatishicha, ayrim qo'shimchalar (alkid elimi, elim loki va boshqalar) qo'shilganda qog'ozning bo'yoq bilan namlanishi yaxshilanadi. Bunda bo'yoqning adgeziyadan ko'proq kogeziya mustahkamligi oshadi.

Bosma jarayonida qog'oz va bo'yoqlarning o'zaro ta'sirlanishi sharoitlariga bosma kontakt vaqtida qog'oz yuzasidagi g'ovaklar orasidan uning qatlamiga kirib oladigan bo'yoqqa bosim katta ta'sir ko'rsatadi. Qog'ozga shimilgan bo'yoq miqdori ko'payishi bilan rangli nusxalarning kolorimetrik zichligi pasayadi, oq – qora tasvirlarning optik zichligi ham kamayadi. Bunda har bir nusxa olish uchun bo'yoq ko'proq sarflanadi, bu esa uning tannarxini ko'payishiga olib keladi. Bu bosma jarayonida kam g'ovakli yuqori silliq qog'ozlarni, tez qotadigan bo'yoqlarni qo'llashga sabab bo'ldi. Masalan, silliq qog'oz qalinligiga bo'yoqning kirish chuqurligi ushbu holda 3-5 mkm ni tashkil qiladi. Shu bilan birga sanoatda silliqli past va g'ovaklari ko'p bo'lgan gazeta qog'ozini qo'llanib kelinmoqda. Ushbu qog'ozlarda bosish uchun, ayniqsa yuqori bosma usulida sekin qotadigan bo'yoqlardan foydalaniladi. Ular qutbli bog'lovchilardan tayyorlanganligiga qaramasdan, erkin shimib olishda qotish vaqti ko'p bo'lgani uchun, bog'lovchi pigment bilan birga, undan ajralib, nafaqat qog'ozning chuqurligiga, balki vaqt o'tib bo'rtmaning orqa tomoniga o'tishi ham mumkin. Ushbu hodisani eski gazetalarni varaqlab kuzatish mumkin.

Qog'oz bo'yoqni haddan tashqari ortiqcha shimishi, albatta salbiy hodisadir, bu bosma mahsulotning sifatini pasaytiradi. Shimish natijasida nafaqat butun tasvirning optik zichligi, balki uning ayrim elementlarining o'lchamlari ham o'zgarib ketadi. Bir xil zichlikka ega bo'lmagan qog'oz bo'yoqning qalinligi bo'yicha bir xilda taqsimlangan nusxalar olish imkonini bermaydi. Ayrim hollarda nusxalarda bog'lovchini pigmentdan ajralishini va uni nusxaning oraliq joylarda tarqalishini kuzatish mumkin. Oddiy sharoitlarda bog'lovchi bo'yoqlar pigmentdan ajralishi kerak emas.

Shu bilan birga bo'yoqning qog'ozga 1-2 mkm chuqurlikda kirishini ijobiy hodisa deb baholash mumkin. Chunki bu holda mexanik adgeziya hisobiga bo'yoqning taglik bilan birlashishi ortadi. Ushbu hodisani bo'yoq qatlamini ajratish jarayonini ko'rib chiqqanda hisobga olish kerak.


Shunday qilib, nusxa olish uchun quyidagi asosiy sharoitlar: bo'yoqni bosiladigan yuzani namlashi va yopishishi; bosim ostida bo'yoqni qog'ozga qisman o'tishi; bo'yoq qatlami ajralganda $W_a > W_k$ tengsizlikka rioya qilish; bo'yoq nusxada qotishi lozim.

Bosish jarayonida namlashning o'rni

An'anaviy usullar yordamida bosish jarayonini belgilovchi adgeziya va namlash hodisalari turibdi. Adgeziya va namlash –bu suyuqlik qattiq jism bilan kontaktda bo'lganda yuzaga keladigan bir hodisaning ikki tomonidir, shu bilan birga adgeziya tabiati turlicha bo'lgan, ammo kontaktdagi moddalarning molekulalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini belgilaydi, namlash esa –bu ushbu o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Agarda suyuqlik (bo'yoq) molekulalari qattiq jism molekulalari bilan o'zaro ta'siri bir –birlariga nisbatan kuchliroq bo'lsa, unda suyuqlik yuzaga bo'ylab oqadi, yani uni namlaydi. Agarda suyuqlik molekulalari bir –birlari bilan qattiq jism molekulalariga nisbatan kuchliroq o'zaro ta'sir etishsa, unda suyuqlik qattiq jism yuzasida qubba shakliga ega bo'lgan tomchiga yig'iladi va bunda namlash amalga oshmaydi. Ushbu ikki hodisalar o'rtasida, molekulyar kuchlarning jadalligiga qarab, tomchi qattiq jismni yuzasi bilan ayrim teng burchakni (θ namlashning chekka burchagi, deb nomlanadigan) tashkil qiladigan, to'liq namlanmaydigan o'tish davri hodisalari bo'lishi mumkin.

Bosish jarayonida to'liq namlanish yoki to'liq namlanmaslik bo'lmaydi, chunki ikkala holatda ham bosish jarayoni yuzaga kelmaydi. To'liq namlanishda bo'yoq nafaqat bosiladigan, balki qolipning oraliq elementlarini ham qoplaydi yoki bosiladigan materialning yuzasi bo'ylab oqib ketadi, bu esa aniq tasvirni olish imkonini bermaydi. To'liq namlanmaslikda bo'yoq qubba shaklda yig'iladi, bu esa

uning qattiq yuza bilan kontaktini yomonlashtiradi va uning bo'lakchalari o'zaro ta'sirlanadigan maydonni cheklaydi, bu esa bo'yoqni surtish va bosma jarayonini olib borish uchun sharoitlar yaratmaydi. Shunday qilib, bosma jarayonida bo'yoq bilan kontaktda bo'ladigan qattiq yuzalarning namlanishi to'liq bo'lmasligi kerak.



2-rasm. Namlash burchagi va yuza tortilishi o'rtasidagi bog'liqlik

Uchta o'zaro ta'sirlanuvchi fazalar: 1-suyuqlik, 2-gaz, 3-qattiq jism (2.1-rasm) juftligi chegarasida yuza tortish kuchlarining harakat natijasini qattiq jism suyuqlik bilan namlanishi deb tushuntirsa bo'ladi.

Yuqori va chuqur bosma usulida bo'yoq bosiladigan hamda oraliq elementlarini namlaydi, oraliq elementlari yuqori bosma qoliplarida bosiladigan elementlar pastroqda joylashgani, chuqur bosmada esa ular bo'yoqlardan rakel pichog'i bilan tozalangani uchun, oraliq joylaridagi bo'yoqlar nusxaga o'tmaydi.

Ofset bosmada bosiladigan va oraliq elementlar deyarli bir tekisda joylashadi, ammo turli molekulyar –yuza xususiyatlariga ega. Bosish vaqtida ofset qolipining butun yuzasi ham bo'yoq, ham namlovchi eritma ta'siriga uchraydi. Bunda oleofil bosma elementlari bo'yoq bilan namlanadi va namlovchi eritma bilan namlanmaydi, gidrofil oraliq elementlari esa suv eritmasi bilan namlanib, bo'yoqni turtib yuboradi, shuning uchun ham tekis qoliplardan bosish mumkin. Tanlab namlash shartlari buzilganda, namlikning o'rin almashishi yuzaga keladi, bunda oraliq elementlar bo'yoqni qabul qila boshlaydi.

BOSISH JARAYONIDA BO'YOQNI YOPISHISHI VA SHIMILISHI

Bo'yoq apparatidan bo'yoqni duktor silindri va uzatish valiklari yordamida bosma qolipga undan esa bosiladigan materialga uzatadi.

An'anaviy bosmada namlash xodisalari nafaqat bo'yoq bilan kontaktda bo'lgan yuzani namlashi, balki unga yopishishi ham kerak. Bo'yoq bosiladigan materialga yopishmasa, bosma tasvirni olib bo'lmaydi.

Bosish jarayonida qolipning bosiladigan elementlariga surtiladigan bo'yoq qatlamining bir qismi qog'ozga ko'chiriladi, va unda mustahkamladi. Bosish jarayoni bo'yoqning qog'ozga, qolipning bosiladigan elementlarida adgeziya bo'yoq kogeziyasidan ko'p bo'lishi kerak, chunki bosiladigan elementlardan bo'yoqni ko'chishi bo'yoq qatlami bo'yicha amalga oshiriladi.

Kogeziya deb bir modda masalan, bo'yoq molekulalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlanish kuchi tushuniladi.

Adgeziya yoki yopishish deb ikkita bir –biriga tegib turgan turli jismlar (masalan, qog'oz va bo'yoq) o'rtasidagi ulanish kuchi tushuniladi.

Ikkita turli xil yuzalarning yuza kuchlari kontaktda bo'lganda, adgeziya aloqasi yuzaga keladi. Shuning uchun ham adgeziya ishi tabiatdan turlicha kuchlarning yig'indisi ta'sirini ifodalaydi.

Hozirgi kunda ikkita kontaktdagi moddalar yopishganda o'zaro ta'sirlanish sabablari va mexanizmini tushuntiruvchi bir necha adgeziya nazariyalari mavjud, ulardan eng keng tarqalganlari: adsorbtsiya, diffuziya, elektrostatikdir.

Adsorbtsiya nazariyasi adgeziyani bir modda molekulalarini boshqasining yuzasiga adsorbtsiyasidek qaraydi va yopishishni molekulyar tortish kuchi harakati bilan tushuntiradi.

Elektrostatik nazariyasi bir modda boshqasi bilan kontaktda bo'lganda ikki tomonni elektr qatlami tashkil qilinishi to'g'risidagi taxminga asoslanadi, uning natijasida yopishishni yuzaga keltiruvchi turli zaryadlarning tortish kuchi paydo bo'ladi.

Diffuziya nazariyasi adgeziyani bir komponent boshqasida diffuziyaga uchrashini va bunda molekulyar kuchlar va kontakt yuzasi ko'payishi hisobiga mustahkam aloqalar o'rnatilishiga olib keladi, chunki diffuziyada kontakt chegarasi o'chib ketadi. Ofset bosmada oraliq elementlar gidrofil bo'la turib, namlovchi suv eritmasining ingichka pardasi bilan qoplanadi va ushbu parda oraliq elementlari va bo'yoq o'rtasidagi o'zaro ta'sirlanish kuchini belgilaydi, yani bo'yoqning oraliq elementlariga adgeziyasi bilan belgilanadi, ularning o'zaro ta'sirlanish energiyasi juda ham pastdir, u bo'yoq va oraliq elementlaridan past bo'lishi kerak. Bosma bo'yoq qattiq yuz bilan kontaktda bo'lganda, asosan ikkilamchi (molekulyar) kuchlar yuzaga keladi, kimyoviy aloqalar tashkil bo'lish imkonini ham inkor qilib bo'lmaydi. Masalan, turli metall yuzalarda tashkil bo'ladigan oksid pardalar va metall qoliplari bilan bosma bo'yoqlar tarkibiga kiradigan polimerlarning bog'lanish aloqalari tashkil bo'lishi mumkin.

